



Raimdjanov Mirkarim Tolibjon o'g'li,
Toshkent gumanitar fanlar universiteti "Pedagogika va tillar"
kafedrasi mudiri ps.f.b.f.d., (PhD)

BIXEVIORISTIK TADQIQOTLAR DOIRASIDA ONALIK FENOMENINING O'RGANILISHI

<https://doi.org/10.65185/mojgo.vi.264>

Annotatsiya. Mazkur maqolada onalik fenomeniga oid bixevioristik tadqiqotlar keng qamrovda tahlil qilingan. Unda onalikning shakllanishi, rivojlanishi va namoyon bo'lish jarayonlarini belgilovchi psixologik hamda ijtimoiy omillar ilmiy asosda izohlangan. Xususan, bixevioristik yondashuv doirasida onalik xatti-harakatlarining tashqi muhit stimullari bilan bog'liqligi, ularning farzand tarbiyasidagi motivatsion, emotsional va xulqiy mexanizmlari chuqur tahlil qilingan. Bundan tashqari, maqolada onalik fenomeniga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy va biologik omillar alohida o'rganilgan.

Tayanch so'zlar: ayol, ona, onalik, bola, shaxs, mustahkamlash, identifikatsiya, tushunish.

Аннотация. В данной статье подробно проанализированы бихевиористические исследования явления материнства. В ней на научной основе объясняются психологические и социальные факторы, определяющие процессы формирования, развития и проявления материнства. В частности, в рамках бихевиористического подхода глубоко проанализирована связь поведения матери со стимулами внешней среды, ее мотивационные, эмоциональные и поведенческие механизмы в воспитании детей. Кроме того, в статье обсуждаются социальные и биологические факторы, оказывающие негативное влияние на материнство.

Ключевые слова: женщин, материнства, ребенка, личности, понимание.

Annotation. This article analyzes in detail behavioral studies of the phenomenon of motherhood. It explains on a scientific basis the psychological and social factors that determine the processes of formation, development and manifestation of motherhood. In particular, within the framework of the behavioral approach, the relationship of the mother's behavior with the stimuli of the external environment, its motivational, emotional and behavioral mechanisms in raising children are deeply analyzed. In addition, the article discusses social and biological factors that have a negative impact on motherhood.

Keywords: women, motherhood, child, personality, understanding.

Kirish. Onalik fenomenini o'rganishda faqatgina bitta yondashuv bilan chegaralanish yetarli emas. Chunki ushbu hodisa psixologik, ijtimoiy va biologik omillar o'zaro uzviy bog'liqligida shakllanadi. Ijtimoiy omillar qatoriga oilaviy nizolar, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, yetarli ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimining

yo'qligi, gender tengsizligi va jamiyatda mavjud bo'lgan stereotiplar kiradi. Biologik omillar esa homiladorlik davrida yuz beradigan fiziologik o'zgarishlar, gormonal disbalans, psixosomatik holatlar, tug'uruqdan keyingi depressiya va stress jarayonlari bilan izohlanadi. Shu bois, onalik fenomenini kompleks yondashuv asosida tadqiq

etish uni yanada to'laonli anglash va amaliy psixologiyada samarali metodikalarni ishlab chiqishda muhim ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Maqsad va uni asoslash. Bixevioristik yondashuv doirasida, xususan ijtimoiy ta'lim nazariyasi nuqtayi nazaridan, ona va bola o'rtasidagi o'zaro munosabatlar an'anaviy "stimulus-reaksiya" (S–R) prinsiplariga tayangan holda izohlanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, bolaning xulqi tashqi muhitdan keladigan rag'batlantiruvchi ta'sirlarga javob tariqasida shakllanadi, ona esa bu jarayonda asosiy ijtimoiylashtiruvchi agent sifatida namoyon bo'ladi. Rag'batlantiruvchi va reaktiv xatti-harakatlar o'zaro ta'lim jarayonida uzluksiz o'zgarib borib, bolaning keyingi emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotchilar fikricha, ona-bola o'rtasidagi o'zaro ta'sirning mavjud shakllari ko'pincha biologik jihatdan belgilangan bo'lib, bunda instinktiv reaksiyalar, gormonal mexanizmlar va tug'ma reflekslar muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, bixevioristik yondashuv doirasida ushbu munosabatlarning individual rivojlanish xususiyatlari ko'pincha yetarli darajada hisobga olinmaydi. Bu esa onalik xatti-harakatlarini shaxsiy, madaniy va ijtimoiy kontekstda tahlil qilish imkoniyatlarini cheklaydi.

Natijada, ona-bola munosabatlarini faqatgina "stimulus-reaksiya" modeliga asoslanib tushuntirish bir qator ilmiy cheklovlarga olib keladi. Zamonaviy tadqiqotlarda ushbu yondashuvni rivojlantirish maqsadida unga kognitiv, sotsiokultural va psixodinamik omillarni qo'shib, onalik fenomenini yanada kompleks tarzda izohlash zarurligi ta'kidlanmoqda.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Onalik muammosi, ya'ni ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni bevosita tadqiq etgan olimlardan biri R. Sirs hisoblanadi¹.

R. Sirs bolalar rivojlanishini o'rganishda diadik yondashuv tamoyilini ilgari surgan, ya'ni bola rivojlanishini uni tarbiyalayotgan shaxs, eng avvalo, onaning xatti-harakatlari bilan bog'liq holda tushunishni taklif etgan. Olimning fikriga ko'ra, bola rivojlanishi uch bosqichda kechadi:

1-bosqich (4 oydan 12 oygacha).

Ushbu bosqichda bolaning har qanday ehtiyoji o'ziga xos ta'lim manbayi sifatida namoyon bo'ladi. Bunda ona yoki uning o'rnini bosuvchi shaxsdan ko'riladigan mehr-muhabbat va g'amxo'rlik asosiy kuch sifatida maydonga chiqadi. Bola xulq-atvorini shunday tarzda shakllantiradiki, unda onaning tez-tez mehr va e'tibor ko'rsatishi markaziy ahamiyat kasb etadi. Aynan shu ehtiyojni qondirish orqali bolaning onaga bo'lgan psixologik bog'liqligi shakllanadi.

2-bosqich (2,5 yoshdan 6-7 yoshgacha).

Bu davrda ona hali ham bolaning xulq-atvorini shakllantirishda asosiy manba bo'lib qoladi. Shu bilan birga, bolaning ijtimoiy muhiti kengaya boshlaydi, natijada onaga bo'lgan munosabatlarda o'zgarishlar yuz beradi. Bola onaning e'tibori uchun raqobat hissini boshdan kechiradi, bu esa mustaqillikka bo'lgan ehtiyoj bilan uyg'unlashadi.

3-bosqich (7 yoshdan 17-18 yoshgacha).

Bu bosqichda onaga qaramlik bosqichma-bosqich kamayib boradi. Tengdoshlar, o'qituvchilar va boshqa ijtimoiy muhit vakillari bolaning asosiy ijtimoiy aloqa obyektlariga aylanadi hamda ular qo'llab-quvvatlashning asosiy manbayiga aylanishadi.

Xulosa qilib aytganda, bolaning rivojlanishi va shaxs sifatida shakllanishi – ta'lim va ijtimoiy tajriba mahsuli bo'lib, u bolaning yoshi va atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlariga qarab o'zgarib boradi.

Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar masalasi bilan shug'ullangan ijtimoiy fan nazariyasining yana bir muhim vakili J. Gervits hisoblanadi². U, ayniqsa, ona va bola o'rtasidagi mehr-muhabbat munosabatlariga alohida e'tibor qaratgan. R. Sirs bolaning rivojlanishida qo'llab-quvvatlovchi shaxsning mavjudligini asosiy omil sifatida ko'rsa, J. Gervits bu qo'llab-quvvatlovchi munosabatning qanday sharoitlarda shakllanishi va amalga oshirishini ham muhim omil sifatida ko'rib chiqadi.

Muallifning yondashuvidagi o'ziga xos jihatlardan biri – u nafaqat bola, balki ona tomonidan ham bog'liqlikni shakllantirish

¹ Smith, C.L. Predicting Stability and Change in Toddler Behavior Problems: Contributions of Maternal Behavior and Child Gender / Smith, C.L. // *Developmental Psychology*, 2004. Vol 40(1). – P. 29-42.

² Esteve, A. The family context of cohabitation and single motherhood in Latin America / A. Esteve, J. Garcia - Roman., R Lesthaeghe // *Population and Development Review*. 2012. T. 38. №. 4. – P. 707-727.

jarayonini o'rganishga alohida e'tibor qaratgani. J. Gervitsning fikricha, bola kattalar, ayniqsa, ota-onalar uchun ijobiy hamda salbiy his-tuyg'ularning cheksiz manbasi bo'lib xizmat qiladi va bu holat ularda qo'shimcha psixologik faollikni yuzaga keltiradi. Masalan, bolaning yig'lashi ota-onalar uchun uning ehtiyojlarini anglatadigan signal sifatida qabul qilinadi. Shu orqali bola o'z turli xatti-harakatlarini nazorat qilish va kattalar xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bixevioristlar ham bolaning rivojlanishi va shaxs sifatida shakllanish jarayonida oila hamda boshqa ijtimoiy institutlar tuzilmasini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratganlar. Ushbu yondashuv doirasida U. Bronfenbrennerning tadqiqotlari muhim o'rin egallaydi³. Uning tadqiqot ishlari bolani o'rab turgan muhitning murakkab, ko'p qatlamli tuzilishini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, u shaxs rivojlanishini nafaqat individual psixologik omillar, balki ijtimoiy va madaniy kontekstdagi o'zaro ta'sirlar bilan bog'liq holda izohlaydi.

U bolaning ijtimoiylashuvi jarayonida ko'plab omillar mavjudligini ta'kidlaydi. Biroq ularning ichida asosiy va hal qiluvchi rol aynan oilaga tegishli deb hisoblaydi. Oila a'zolarining ijtimoiy mavqeyi, moddiy ta'minoti, ota-onalarning kasbi va ta'lim darajasi, oiladagi ruhiy muhit, o'zaro munosabatlar uslubi, nazorat va intizom shakllari – bularning barchasi bolaning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bu ta'sirlar quyidagi uch asosiy mexanizm orqali amalga oshadi:

1. Mustahkamlash – ijobiy xulq-atvorni rag'batlantirish va ijtimoiy qabul qilingan me'yorlarni buzganlik uchun jazolash orqali.

2. Identifikatsiya – bolaning ota-onaga taqlid qilishi orqali axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarining o'zlashtirishi.

3. Tushunish – bolaning hissiy holati va muammolariga nisbatan ota-onaning sezgir munosabati, bu orqali bolada o'zini anglash, o'z fikrini ifoda eta olish va kommunikativ ko'nikmalar shakllanadi.

U. Bronfenbrenner bolaning rivojlanish jarayonini tahlil qilishda ko'plab yoshlar boshdan kechiradigan begonalashuv (alienatsiya)

tushunchasiga ham alohida e'tibor qaratadi⁴. Uning fikricha, bu holat insonning o'zini anglamasligi, o'ziga bo'lgan ishonchsizlik, ichki kuchlariga shubha qilish, shuningdek, jamiyatdagi o'z o'rnini topishda qiynalish kabi holatlarda namoyon bo'ladi. Begonalashgan shaxs nafaqat atrofdagilarga, balki o'ziga nisbatan ham salbiy munosabat bildiradi, hatto jamiyatga nisbatan dushmanlarcha kayfiyatda bo'lishi mumkin. Olim bu kabi begonalashuv holatining ildizlarini, eng avvalo, oilaviy tarbiya tizimida va o'ziga xos psixologik xususiyatlar shakllanishida ko'radi. Oiladagi muloqot uslubi, hissiy yaqinlik darajasi, ota-onalarning bolaning shaxsiy ehtiyojlari va ichki kechinmalariga bo'lgan munosabati ushbu muammoning yuzaga kelishida muhim omillar sifatida e'tirof etiladi.

U. Bronfenbrennerning fikricha, zamonaviy jamiyat sharoitida ko'pchilik onalarning ishlashi natijasida bolalar ko'p hollarda yolg'iz qolishga majbur bo'ladilar⁵. Ular o'z vaqtlarini enagalar bilan, kompyuter, televizor, boshqa texnologik vositalar hamda XXI asrning texnik yutuqlari bilan yoki mutlaqo yakka holda o'tkazadilar. Bu holat ikki avlod – bolalar va ota-onalar o'rtasidagi izolyatsiya, ya'ni hissiy ajralishga olib keluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi hamda bu izolyatsiya bolaning butun hayotiga ta'sir etadi.

Tadqiqotchi ushbu vaziyatda faqatgina ota-onalarni ayblash to'g'ri emasligini ta'kidlaydi, chunki ularga jamiyat tomonidan belgilab berilgan turmush tarzi va yashash sur'ati jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur sotsial stereotiplar ta'sirida aksariyat ayollar oila va bolalarga e'tibor berish imkonidan mahrum bo'lmoqdalar.

Natijada ajrashishlar sonining ko'payishi, iqtisodiy qiyinchiliklar, ishdagi muntazam stress va turli to'siqlar onaning ijtimoiy maqomi, ichki qoniqishi hamda ruhiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu holat esa, o'z navbatida, bolaning ruhiy rivojlanishiga bevosita ta'sir qilib, unda befarqlik, dushmanlik, mas'uliyatsizlik, ijtimoiy faoliyatga bo'lgan qiziqishning pasayishi, qat'iyat va tashabbus yetishmasligi kabi holatlarda namoyon bo'ladi.

⁴ Bronfenbrenner, У. Два мира детства. Дети в США и СССР / У. Bronfenbrenner. – Москва: Прогресс, 1986. – 168 с.

⁵ Bronfenbrenner, У. Два мира детства. Дети в США и СССР / У. Bronfenbrenner. – Москва: Прогресс, 1986. – 168 с.

³ Bronfenbrenner, У. Два мира детства. Дети в США и СССР / У. Bronfenbrenner. – Москва: Прогресс, 1986. – 168 с.

Vaziyat og'irlashgan sayin bolaning fikrlash qobiliyati, tushunchalarni anglash va ularni oddiy darajada qo'llay olish salohiyati ham susayadi. Bronfenbrenner bu kabi muammolar ildizini bolaning ilk ijtimoiylashtiruvchisi bo'lgan oila muhitidagi nomuvofiqliklar va ijtimoiy tizimdagi bosimlar bilan bog'laydi.

Shunday qilib, ona va bola o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ijtimoiy ta'lim hamda o'zaro ta'sir nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Bu jarayonda qo'llab-quvvatlashning asosiy manbayi sifatida ijtimoiy muhit namoyon bo'ladi. Bolaning butun rivojlanish jarayoni esa, asosan, o'qitish va ta'lim olish faoliyati bilan uyg'un holda ko'rib chiqiladi.

Bixevioristik yondashuv ham psixoanalitik yondashuv kabi onalik fenomenini alohida va chuqur mustaqil tadqiq qilishga yetarlicha e'tibor qaratmaydi. Bu yondashuvlarda onalik ko'proq bola xulq-atvorining shakllanishida fon yoki vositachi omil sifatida tasvirlanadi. Natijada, onalik murakkab psixologik va ijtimoiy holat sifatida emas, balki oddiy reaktiv xatti-harakatlar darajasida talqin etiladi.

Yakuniy qism. Ilmiy izlanishlar shuni tasdiqlaydiki, onalik xulq-atvori ijtimoiy-madaniy muhit ta'sirida shakllanadi. Ota-onaning ijtimoiy ahvoli, kasbi, ta'lim darajasi, oiladagi ruhiy muhit, nazorat va tarbiya uslubi kabi omillar bolaning ijtimoiylashuvi va shaxsiy rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, onaning psixologik holati, hayotdan qoniqishi va emotsional barqarorligi

farzand tarbiyasining samaradorligini belgilab beradi.

Shuningdek, zamonaviy yondashuvlar onalikni faqat bolaning rivojlanishi bilan bog'lamasdan, onaning o'z holati va ehtiyojlarini ham hisobga olish zarurligini ta'kidlamoqda. Hozirgi davrda onaning izolyatsiyasi, ijtimoiy yordam tizimlarining zaifligi, iqtisodiy bosimlar va ma'naviy charchoq uning farzandga bo'lgan munosabatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, onalik masalasini o'rganishda bola va ona o'rtasidagi o'zaro munosabatlar kompleks, tizimli hamda ko'p qirrali yondashuv asosida tahlil qilinishi lozim.

Onalik muammosi bo'yicha psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili ushbu tushuncha mazmunining bir xil, aniq ta'rifga ega emasligini ko'rsatadi. Bu, avvalo, muallifning G'arb yoki mahalliy (ayniqsa, rus) psixologik maktabiga mansubligi bilan bog'liqdir. G'arb psixologiyasida onalik quyidagi talqinlarda yoritiladi: ayolning genetik moyilligi sifatida; biologik jarayon sifatida; hayotiy bosqich sifatida; ona-bola munosabatlari tizimi sifatida; shuningdek, bolaning normal ruhiy rivojlanishini ta'minlovchi asosiy ijtimoiy omil sifatida.

Mazkur tadqiqot doirasida muallif onalikni onaning onalikka bo'lgan munosabati, o'zini ona sifatida anglash darajasi, onalik roli, farzandiga nisbatan onalik pozitsiyasi, oilaviy tarbiya uslubi va ota-onalik mas'uliyati bilan bog'liq murakkab munosabatlar tizimi sifatida talqin qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бронфенбреннер, У. Два мира детства. Дети в США и СССР / У. Бронфенбреннер. – Москва: Прогресс, 1986. – 168 с.
2. Esteve, A. The family context of cohabitation and single motherhood in Latin America / A. Esteve, J. Garcia - Roman., R Lesthaeghe // Population and Development Review. 2012. T. 38. №. 4. – P. 707-727.
3. Smith, C.L. Predicting Stability and Change in Toddler Behavior Problems: Contributions of Maternal Behavior and Child Gender / Smith, C.L. // Developmental Psychology. 2004. Vol 40(1). – P. 29-42.